



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O‘zbek dialektologiyasida qo‘llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, “Oychinor” dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo‘ylab qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, “Zarbulmasal”dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o‘zbek shevalarining o‘zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O‘zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o‘rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O‘zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama’lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	754
74	Marjona TOG‘AY, “Qoraqayun” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar tahlili	758

“QORAQUYUN” ROMANIDA QO‘LLANGAN LEKSIK DIALEKTIZMLAR TAHLILI

ANALYSIS OF LEXICAL DIALECTISMS USED IN THE NOVEL "QARAKUYUN"

Marjona TOG‘AY,
ToshDO‘TAU magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026/KMXT8147

Annotation: *This article analyzes lexical dialectisms used in the works of the famous writer Narmurad Narkabilov and their role in the artistic text. The importance of using words specific to the Khashkhadarya dialect in the author's works for individualizing the characters' speech and increasing the emotionality of the work is highlighted. Lexical dialectisms are studied as an integral part of the writer's artistic skill.*

Key words: *Narmurod Narkabilov, lexical dialectism, artistic language, dialect, Khashkhadarya dialect, speech individualization, lexicography.*

O‘zbek nasrida o‘zining betakror uslubi, tabiat va inson o‘rtasidagi nozik rishtalarni tasvirlashdagi mahorati bilan tanilgan Normurod Norqobilov asarlarining muvaffaqiyati uning tilida ham namoyon bo‘ladi. Adib asarlarini adabiy tildagi quruq jumlar bilan emas, balki jonli xalq tilining shirali qatlamlari, xususan, o‘zi yaxshi bilgan Qashqadaryo vohasi (Qarshi va Qamashi hududlari) shevasiga xos so‘zlar bilan boyitadi. Har bir umumxalq tili bir qator sheva va dialektlar yig‘indisidan iborat. Har bir dialekt o‘sha hududda yashovchi xalqning genezisini, hayot tarzini, har xil geografik sharoitlarga bog‘liq holda unda yuzaga keladigan leksik birliklarning paydo bo‘lish sabablarini, ildizini o‘zida aks ettiradi. Jamiyatda mavjud tillarning shakllanishi bir necha omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ma‘lum bir tilning keng omma nutqida qo‘llanib, rivojlanishi shu tilning taraqqiyot yo‘lida bosib o‘tgan turli xil murakkab bosqichlarning mahsuli hisoblanadi. Shuni alohida aytish kerakki, dialektal so‘zlarning adabiy til tarkibiga kirishida, uning lug‘at fondidan joy olishida badiiy asarlar juda katta o‘rin tutadi. Chunki xalq leksikasi adabiy tilga asosan badiiy asarlar orqali kirib keladi. O‘z navbatida badiiy til ham har tomonlama shevalarga faol ta’sir ko‘rsatib turadi, lekin shevalar ham adabiy til uchun zaruriy manba bo‘lib xizmat qiladi [3: 53]. Badiiy asarlarda qo‘llaniladigan dialektizmlar haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, yozuvchilar o‘z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadilar.

Badiiy asarlarda uchraydigan dialektizmlar haqida maxsus tadqiqot olib borgan o‘zbek tilshunos olimi B.Fayzullayev masalani juda oydinlashtirgan. U aytadiki: “Dialektizmlarni olimlar turlicha ta’riflashgan. Ayrim sabablarga ko‘ra va

ma'lum maqsadlarni o'ylab adabiy til tarkibida qo'llaniladigan, unda ma'lum vazifani bajaradigan, alohida dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan so'z va so'z birikmalari dialektizmlardir". Shuni ta'kidlash kerakki, milliy til tarkibida dialektlar saqlanib qolarkan ular hamma vaqt bir-birini boyitib va to'ldirib boradi [2: 36]. Leksik dialektizmlar faqat shevagagina xos bo'lib, adabiy tilda uchramaydigan so'zlar badiiy asar tili uchun juda ham xarakterlidir. Chunki bunday so'zlar hozirgi paytda jonli xalq shevalarida saqlanib qolgan. Bunday so'zlar adabiy tilda uchramasligi, uchrasa ham boshqa semantik ma'noga ega bo'lishi mumkin [3: 56].

Akademik Shoabdurahmonov Sh.Sh ilmiy izlanishlarida "Dialektal so'zlar badiiy asarlarda ham qo'llanilishi ya'ni joy koloriti, personajlar tili xususiyatlari nihoyatda rang-barangligini ta'minlash uchun ham qo'llanmog'i lozim",- deb ko'rsatadi. Avvalo shuni aytish kerakki, shoir va yozuvchilar o'z asarlari tilida biror dialektga xos so'z va iboralardan turli maqsadlarda foydalanib keladi [4: 5]. Keltirilgan misollar orqali yozuvchining dialektal so'zlardan turli maqsadlarni tasvir etish maqsadida qo'llanilganini ko'ramiz :

1. "Biroz, ozgina" → "Andak" (*Andak iddao, andak zarda bilan qachongacha qiynaysan buni ?*) "Qoraqayun" [1: 22]

2. "Tanbeh" → "Dakki" (*Badgir va maydagapligi bois hamisha kishilardan dakki yeb yuradi.*) "Qoraqayun" [1: 24]

3. "Qishloq" → "Ovul" (*Ovul tinchini qo'riyman.*) "Qoraqayun" [1: 25]

4. "Xabar berib" → "Daraklab" (*Bilaman, ular oq tulporni daraklab kelishadi.*) "Qoraqayun" [1: 27]

5. "Uy qurib yurmoq" → "O'tov tikib yurmoq" (*O'tov tikib yurmoq manovi qo'rg'onga egalik qilsang bo'lmaydimi, Ermanboy.*) "Qoraqayun" [1: 34]

6. "Ukam" → "Inim" (*Chin tulporday ko'kka sapchib tursin deymanda, ini.*) "Qoraqayun" [1: 22]

7. "Buvi" → "Momo" (*Egalik qilmoqchi edim momo qo'ymadi, oqsoqol.*) "Qoraqayun" [1: 34]

8. "Ona" → "Ena" (*Enasining mehri bo'linmasligi uchun ortiqcha kuchuklar darrov yo'qotilishi lozim.*) "Qoraqayun" [1: 49]

9. "Aka" → "Og'a" (*Og'a inisidan ilk bora hayiqdi.*) "Qoraqayun" [1: 49]

10. "Qarindosh, urug'" (*Eslaringda tutinglar, u qul emas, xesh bizga.*) "Qoraqayun" [1: 69]

11. "Katta-katta bo'laklarda yeyish" → "guppa guppa yeyish" (*Men bergan ovqatni guppa-guppa tushirasanlar-u lekin bittang qulluq qilay demaysan.*) "Qoraqayun" [1: 72]

12. "Yashirib" → "Bekitiqcha" (*Yuvgan tillalaringdan har kuni menga bekitiqcha ulush berib turasanlar deb aytdi deymiz.*) "Qoraqayun" [1: 73]

13. "Suhbatlashamiz" → "Gurunglashamiz" (*aka pastga tushing gurunglashamiz.*) "Qoraqayun" [1: 74]

14. "Tushganidan" → "Iyganidan" (*Sizga mehrim iyganidan beri ovulim ham esdan chiqay deyapti*) "Qoraqayun" [1: 88]

15. “Bosh” → “Kalla” (Bu yo sog‘inch tufayli yo haqiqatdan kallamga bir narsa bo‘lgan.) “Qoraqyun” [1: 89]

16. “Aksincha” → “Qaytaga” (Lekin u kabi zavqlana olmadi, qaytaga o‘zi chetda qolib uning qandaydir bir toshga mahliyoligidan battar jini qurishdi.) “Qoraqyun” [1: 91]

17. “Ortiqcha gaplarni boshlabsizda” → “Tarashlashni” (Yana tarashlashni boshlabsizda) “Qoraqyun” [1: 94]


18. “Nima keragi bor” → “Ne chikora” (Agar Nasib etmaydigan bo‘lsa bu tiriklik ne chikora ularga ?) “Qoraqyun” [1: 101]

19. “Burun usti” → “Qanshari”, “Kipriklari” → “Mijjalari” (Qizni eslashi bilan o‘kinchga o‘xshash g‘alati bir tuyg‘udan qanshari achishib , mijjalari namlandi) “Qoraqyun” [1: 101]

20. “Bolali bo‘lgansiz” → “Qo‘zilagansiz” (Mana siz bir emas uchta qo‘zilagansiz) “Qoraqyun” [1: 103]

Normurod Norqobilovning “Qoraqyun” asari matni yuzasidan to‘liq statistik jihatdan tahlil o‘tkazildi. Asarning umumiy lisoniy hajmi 52 486 ta so‘zdan iborat ekanligi aniqlandi. Yozuvchi Normurod Norqobilov o‘z asarlari tilida leksik dialektizmlarni qo‘llashga alohida e‘tibor bergan. Mazkur leksik fond tarkibidan olingan va bevosita hududiy dialektizmlar (leksik dialektizmlar) guruhiga mansub bo‘lgan birliklar takrorlanish chastotasi bilan birga 384 tani tashkil etdi. Aniqlangan 384 ta dialektal qo‘llanish tarkibida matn bo‘ylab tarqalish faolligi va chastotasi jihatidan beshta tayanch birlik ajralib turadi. Aniqlangan leksik dialektizmlarning foiz ko‘rsatkichlari dinamikasi quyidagi diagrammada o‘z aksini topgan:

Dialektal birliklarning umumiy miqdordagi ulushi (%)



Xulosa qilib aytganda, Normurod Norqobilov mohir so‘z ustasi sifatida umumxalq o‘zbek tili imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanadi. Bu esa asarlari tilining serjilo, serbo‘yoq bo‘lishiga imkoniyat yaratgan. Xususan, asarlarining tili

har tomonlama aniq, puxta, ixchamligi bilan xarakterlanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, Normurod Norqobilov ijodini o‘rganish uning badiiy talanti va mahorati nechog‘lik yuqori ekanligidan dalolat beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norqobilov N. (2016). Qoraqayun: roman. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU. – 212 b.
2. Файзуллаев Б. Диалектизмлар ва уларнинг бадий адабиётдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1972. – № 4.
3. Tojiyeva G.Y. Shukur Holmirzayev hikoyalarining lingvopoetik tahlili: Magistrlik dissertatsiyasi. – Termiz: TerDU, 2022. – 65 b.
4. Шоабдурахмонов. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, Фан, 1961.